

ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA INSON OBRAZI

Madirimova Gulfuza Ro'zmatovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

Jurnalistika fakulteti 1-kurs magistranti

E-mail: gulfuzamadirimova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Erkin Vohidov she'riyatida inson obrazining badiiy tasviri, shoirning inson obrazi orqali ifodalamoqchi bo'lgan ma'no-mazmun, g'oyalari, maqsadi, obraz yaratishdagi o'ziga xos uslub va novatorlik, badiiy vositalar qo'llashdagi mahorati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Obraz, uslub, badiiy vositalar, g'oya, mazmun.

ABSTRACT

This article analyzes the artistic image of the human image in the poetry of Erkin Vahidov, the meaning, ideas, goals, unique style and innovation in the creation of the image, the skill of the poet in the use of artistic means.

Keywords: Image, style, artistic means, idea, content.

KIRISH

Erkin Vohidov she'riyatini nafisligi ,badiiy jozibasi, falsafaga yo'g'rilgan chuqur ma'no olami, ohangdagi o'ziga xosligi bilan alohida ajralib turadigan she'riy ummonga qiyoslash mumkin. "Erkin Vohidov poetik tafakkuri g'oyat keng va tiniq shoir ekanligini",¹ uning qalamidan to'kilgan satrlarda olam-olam ma'no mujassam bo'lishini juda ko'p olimlar e'tirof qilishgani ham beziz emas.

Shoir inson va uning umri, bu dunyoda yashashdan asosiy maqsadi aslida nima bo'lishi kerakligi, Alloh ato qilgan umrning nima uchun berilganligi haqida chuqur o'ychanlik va kuyunchaklik bilan yozadi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

Quyida shoir qalamiga mansub bir qator mazmunan yuksak, badiiy go'zal nazm namunalari tahlili orqali Erkin Vohidovning inson obraziga yuklagan ma'no va mazmunni, g'oya va maqsadini aniqlashga harakat qilamiz."Suvni kesib, parchalab bo'lmanidek, asl she'rlarni ham satrma-satr tahlilga tortish g'oyat mushkul".²

Sarlavhasiz ushbu she'rda shoir shunday yozadi:

*Inson fe’li ajabdan ajab,
Yo ’qdir unga mezonsiz olam.
Yulduzlarni o ’lchar botmonlab,
Qarichlaydi cheksizlikni ham.*

Shoir insonning inson fe’liga xos bo‘lgan qiziquvchanlikni, aqliy salohiyatni shu yo‘sinda ochib beradi.

*O’zi ega , o’zi qul mangu
O’zi topgan aqidalarga.*

Insoniyat paydo bo‘libdiki, u turli urf-odatlarni o‘zi yaratib , keyin ularga shu darajada tobe bo‘ladiki, bu turli ko‘ngilsiz holatlarga ham sabab bo’ladi. Shoir mana shunday holatlarni birgina jumla orqali ta’sirli va badiiy aks etttiradi.

Umrning oqar suvday o‘tib ketishi, yoshlik o‘rnini keksalik egallab, asta sekin go‘zallik tark etishini, ammo inson bundan ranjimay, aksincha, xursand bo‘lishini quyidagicha izohlaydi:

*Ko ‘paysa-da ajinlar garchand,
Oqarsa-da yillardan boshi,
Quvonadi- ko ‘paydi farzand,
Sevinadi-ulg‘aydi yoshi.*

Shoir shu o‘rinda inson umri, hayoti mazmuni xususida shunday xulosaga keladi:

*Bu tiganmas orzu-havasda
Bor umidbaxsh imonga asos.
Inson o ’lmas.
Asta va asta
Farzandlarga o ’tadi, xolos.*

Erkin Vohidov she’rlarida o’ziga xos jihatlaridan biri-u fikrlarini ochiqdan ochiq, oshkora aytib qo‘ya qolmaydi. Balki yuragida tug‘ilgan o‘tkir kinoyали gaplarini ham yengil humor vositasida kulgili qilib, yumshoqlik bilan aytadi O‘tkir satirani ham yumorga o‘rab shunday kulgili holatni o‘quvchilar ongida gavdalantiradiki, satrlardan to‘kilgan ma’noni anglash jarayonida ham kulgu, o‘kinch tug‘iladi.

Quyidagi jamiyatdagi, insonlar orasidagi o‘ta og‘riqli illat haqida shoir shunday tashbehu kinoyalar o‘ylab topadiki, o‘qigan insonni kulib turib g‘am chekishga majbur qiladi.

*Bu qaltis dard,
Ziyrak bo ‘ling,
Belgilari ayondir:
Bosh sal egik, qo ‘l ko ‘krakda,
Til suchuk, yuz alvondir.
Mana unga qarang!
Xushro ‘y,
Mo ‘mingina boladir.
Poraxo ‘rmas, qo ‘lingizni
Qaytarolmay oladir.*

Aslida, bu yerda o’tkir kinoya bor. Biroq shoir shunday badiiy topilma qiladiki, aslida o‘ta qabih ishni qilayotgan odamning xatti-harakatini fazilat sifatida obrazli yaratadi va natijada, o‘quvchi shoir fikrini juda yorqin his qiladi, aytmoqchi bo‘lgan gapi ongu shuuriga qadar yetib boradi.

*Bu amaldor ko ‘tarilgan
Kimlargadir suyalib.
Tramvayda yurmaydi hech
Xaloyiqdan uyalib.*

Aslini olganda mansabga tanish-bilishchilik bilan o‘tirgan inson bu qilgan ishidan uyalmaydi, aksincha, o‘zini odamlardan yuqori qo‘yadi, nazariga ilmaydi. Ammo shoirning badiiy topilmalari shunday o‘rinli va serjiloki, u aslida bu ish juda uyatli ish ekanini shunday tasvirlaydi. U insonning qilmishini uyalganidan deya o’tkir kinoyani yengilgina aytadi.

“Haq so‘z aytmoqqa kattalardan uyalgan hamkasbi” haqidagi kinoya ham juda chiroqli ifodalangan. Shoir jamiyatdagi eng og‘riqli, eng qabih illatlarni shu zaylda birin-ketin sanab, ularning sababi “uyalish” deya izohlaydi. Kosa tagida nimkosa deganlaridek, asl haqiqatini satr zamiriga yashiradi. Zukko kitobxon buni ilg‘ay olishiga ishonadi.

Shoir jamiyatdagi o‘ta og‘riqli nuqtalarni bir joyga shunday ustalik bilan jam qiladiki, inson nomiga yarashmaydigan illatlar haqida o‘ylab, xulosa chiqarishga chaqiradi.

*Muloyim zot sehrgardir,
Naqd qurbanbi bo 'larsiz.
Kulib turib pichoq ursa,
Rahmat aytib o 'larsiz.*

Shoir ikkiyuzlamachilikni oddiygina so‘zlar bilan tasvirlamaydi, balki orqangdan pichoq urib yuzingga kulib boquvchi insonlarga “rahmat aytib o‘lish” degan o‘tkir jumla keltiradi.

NATIJALAR

*Uyatchanlik ega shundoq,
Kishi bilmas quvvatga
Bir uyatchan butun elni
Qo 'ya olar uyatga.*

Mana shu o‘rinda shoirning asl aytar so‘zi, xulosasi aks etadi. U butun elni, xalqni uyatga qo‘yadigan insonlar yuqorida sanab o‘tilgan “uyatchanlar” ekanligini aytadi. Bu kabi illatlar butun jamiyat hayotiga, turmush tarziga daxl qilishi, zarar keltirishi, boshqa millatlar orasida obro‘sini tushirishi haqidagi fikrlarini bir jumлага singdiradi. Barcha aytgan so‘zлari kinoyayu, o‘tkir satira ekanligini quyidagi satrlardan bilib olish mumkin.

*Biz ulardan kulsak, ichda
Ular bizdan kuladi.
Bu kasalni yo 'q qilmasak,
Juda uyat bo 'ladi.*

Shoir bu kabi tuban insonlar o‘z qilmishidan uyalmasligini, aksincha, boshqalarga masxara nigohi bilan boqishini juda ishonarli tasvirlaydi.

O‘zi kabi kuyunchak, jamiyat , xalq haqida qayg‘uradigan insonlarga qarata bunday illatlarni yo‘q qilish yo‘lida harakat qilishga undaydi.

Erkin Vohidov barcha she’rlarida inson sharafini ulug‘laydi. Bu ko‘hna dunyo go‘zalligi ham inson tufayli, inson bo‘lmasa bu olam ham o‘z go‘zalligini yo‘qotadi, deya fikr bildiradi shoir. Bu o‘ylarini shunchaki ifodalama maydi, balki g‘oyat go‘zal tashbehlar orqali tasvirlab beradi.

*Mulki borliq ichra bir mahal
 Ko 'rksizgina olam yaralgan.
 Bermoq uchun dunyoga sayqal
 Olam aro odam yaralgan.*

Faylasuf shoir insonning yaralishi haqidagi fandagi farazlar haqida ham go'zal badiiy topilma yarata olgan. "Chumoli" she'rida mitti hasharotning tinmasdan mehnat qilishi haqida yozarkan, she'r so'ngida xulosa yasaydi:

*Yo 'q,
 Odam ajdodi bo 'lmagan maymun,
 Chumolidan tarqalgan inson.*

MUHOKAMA

Erkin Vohidov insonni "koinot gultoji" sifatida ulug'laydi, "Yerni go'zal qilgani sayin, go'zal bo'lar o'zi ham inson deydi. Ammo inson bu hayot unga nima uchun berilganini anglamog'i, shunga ko'ra harakat qilmog'i lozimligini uqtiradi. Inson nomiga nomunosib, jamiyat rivojiga to'siq bo'ladigan illatlar inson atalmish buyuk xilqatga yarashmasligini tushuntirmoqchi bo'ladi. Alloh taolo ato qilgan buyuk ne'mat umrni go'zal amallar bilan bezash haqidagi fikrlarini juda ko'p she'rlarida badiiy yorin aks ettirad

XULOSA

Erkin Vohidov "Inson fe'li", "Uyatchanlik", "Chumoli" she'rlarida insonning yaralishi, uning bu dunyodagi asosiy vazifalari, Alloh ato qilgan umrni qanday o'tkazmog'i kerakligi haqida falsafiy mushohada yuritadi. Inson obrazini tasvirlashda o'ziga xos uslubdan, she'riy san'atlardan foydalanadi. She'rlar tahlili orqali shoirning naqadar o'tkir qalam egasi bo'lganligiga, badiiy mahorati yuksak ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Shoir "ijodkorlik va fuqarolik mas'uliyatini chuqur his etganligini, uning zalvorli yukini ongli ravishda zimmasiga ortgan holda yashab va ijod qilgani"³ uning she'rlarida ham aks etgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Erkin Vohidov "Kuy avjida uzilmasin tor" she'riy to'plam.

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot. Toshkent-1991

Maqolalar

2. ^{1,3}Yo‘ldosh Solijonov “Ruhiyatni yoritgan she’riyat”
Sharq yulduzi jurnali, 2013-yil, 2-son.
3. ²No‘mon Rahimjonov “Badiiy takomil yo‘li” Toshkent,
”Yoshlik “ jurnali 2017-yil,10-son
4. Gulchehra Qo‘yliyeva “Erkin Vohidov ijodida falsafiy teranlik va so‘z qo‘llash mahorati”
5. Gavhar Mamatqulova.”Erkin Vohidov uslubining o‘ziga xos jihatlari”